Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24319702

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

NARXLAR INDEKSI VA INFLYATSIYA: HISOBLASH USULLARI VA MUAMMOLARI

NABIXO'DJAEV ABBAS ABDUPATTAXOVICH
TDIU Iqtisodiy statistika kafedrasi dotsenti, i.f.n.,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan iqtisodchi
+998 90 999 63 43.
UMAROVA MUKADDAS ABBASOVNA
Millat Umidi universiteti Xalqaro Biznes va moliya kafedrasi professori, i.f.d.
+998 94 641 20 69

Annotasiya: *Ushbu maqolada bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda narxlar indeksi va inflyatsiyani o'lchash muammolari keng yoritilgan bo'lib, rasmiy statistika ma'lumotlarining cheklanganligi sababli iqtisodiy jarayonlarni baholashda yuzaga keladigan xatoliklarni tahlil qilingan. Xususan, xususiy sektor faoliyatining yetarli darajada hisobga olinmasligi, mahsulot sifati va assortimentidagi o'zgarishlar hamda narx indekslarini hisoblashdagi metodologik farqlar muhim omillar sifatida ko'rsatib o'tilgan.*

Shuningdek, maqolada inflyatsiya tushunchasi, uning sabablari va turlari, jumladan talab va xarajatlar ta'siridagi inflyatsiya batafsil tushuntirilgan. Iste'mol narxlari indeksi (INI) va YaIM deflyatori o'rtasidagi farqlar hamda ularni hisoblash usullari ilmiy asosda izohlangan.

Kalit so'zlar: *narxlar indeksi, inflyatsiya, iste'mol narxlari indeksi (INI,YaIM deflyatori, bozor iqtisodiyoti, iqtisodiy statistika, narxlar o'zgarishi, talab va xarajat inflyatsiyasi, iqtisodiy islohotlar, inflyatsiyani prognozlash*

Annotation: *This article examines the problems of measuring price indices and inflation in countries transitioning to a market economy, analyzing the errors that arise in evaluating economic processes due to the limitations of official statistical data. In particular, insufficient consideration of private sector activity, changes in product quality and assortment, and methodological differences in calculating price indices are highlighted as key factors.*

The article also explains the concept of inflation, its causes and types, including demand-pull and cost-push inflation, and provides a scientific explanation of the differences between the Consumer Price Index (CPI) and the GDP deflator, as well as their calculation methods.

Keywords: *price index, inflation, Consumer Price Index (CPI), GDP deflator, market economy, economic statistics, price changes, demand-pull and cost-push inflation, economic reforms, inflation forecasting.*

Published: 05.06.2026

Cite this article: Nabixo'djaev Abbas Abdupattaxovich, Umarova Mukaddas Abbasovna (2026). Narxlar indeksi va inflyatsiya: hisoblash usullari va muammolari. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319702

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

Аннотация: *В данной статье рассматриваются проблемы измерения индексов цен и инфляции в странах, переходящих к рыночной экономике, с акцентом на ошибки, возникающие при оценке экономических процессов вследствие ограниченности официальных статистических данных. В частности, в качестве ключевых факторов выделяются недостаточный учет деятельности частного сектора, изменения качества и ассортимента продукции, а также методологические различия при расчете индексов цен.*

В статье также раскрываются сущность инфляции, ее причины и виды, включая инфляцию спроса и инфляцию издержек, а также дается научное объяснение различий между индексом потребительских цен (ИПЦ) и дефлятором ВВП, а также методов их расчета.

Ключевые слова: *индекс цен, инфляция, индекс потребительских цен (ИПЦ), дефлятор ВВП, рыночная экономика, экономическая статистика, изменение цен, инфляция спроса и инфляция издержек, экономические реформы, прогнозирование инфляции.*

Kirish. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida narxlar tizimi va inflyatsiya darajasi iqtisodiy siyosatni shakllantirishda muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Inflyatsiya darajasini to‘g‘ri baholash davlatning pul-kredit siyosati, aholining real daromadlari va iqtisodiy barqarorlikni tahlil qilishda asosiy ahamiyatga ega. Biroq o‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda narx indekslarini hisoblash va inflyatsiyani o‘lchash bir qator muammolar bilan bog‘liq bo‘lib, bu holat statistik ma’lumotlarning to‘liqligi va metodologik yondashuvlarning yetarlicha moslashmaganligi bilan izohlanadi.

Oxirgi yillarda bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarda keskin o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Biroq iqtisodiy statistikadagi chegaranganlik bu mamlakatlardagi barqarorlashtirish jarayonlarining oqibatlarini baholashda ayrim muammolarni keltirib chiqardi. Ko‘pchilik iqtisodchilarning fikriga ko‘ra islohotlarning dastlabki bosqichlarida rasmiy statistika ma’lumotlarida ishlab chiqarish hajmlarining pasayishi bo‘rttirib ko‘rsatilgan bo‘lsa, iqtisodiyotning sog‘lomlashish jadalligi esa kamaytirib ko‘rsatilgan. Bunday fikrlar quyidagilarga asoslangan:

xususiy ishlab chiqarish hajmining kamaytirib ko‘rsatilishi. Amaldagi an’anaviy statistika iqtisodiyotda sodir bo‘layotgan tez o‘zgarishlarni qamrab ololmayotganligi sababli, ishlab chiqarish hajmining real o‘zgarishlarini ham to‘laqonli hisoblay ololmayapti. Davlat tasarrufidagi sanoat korxonalarida ishlab chiqarish hajmining qisqarish jarayoni xususiy xizmat ko‘rsatish sohasidagi keskin ko‘tarilish bilan birgalikda sodir bo‘lmoqda. Amaldagi an’anaviy statistika esa,

odatda xizmat ko‘rsatish sohasiga ”o‘gay” ko‘z bilan qarab kelgan. Natijada ko‘pincha rasmiy statistika raqamlarida xususiy sektor rivojlanishidagi sur’atlar yetarli darajada hisobga olinmasdan umumiy iqtisodiy pasayish va aholi turmush darajasining pasayish masshtablari bo‘rttirilib ko‘rsatilmoqda. Xususiy sektordagi pasaytirib ko‘rsatish masalasini bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlardagi ish bilan bandlik darajasini tahlil qilish jarayonida chuqur ko‘rib chiqish mumkin;

amaldagi statistika tizimining kamchiliklari. An’anaviy statistika tizimlari unchalik katta bo‘lmagan davlat tasarrufidagi savdo tashkilotlari faoliyatini kuzatishga qaratilganligi sababli mayda xususiy savdodagi juda tez rivojlanish jarayonlarini to‘laqonli kuzatishga moslashmagan;

indekslardagi farqlanishlar. Bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarda iqtisodiy faoliyatni kamaytirib ko‘rsatish bilan birga indekslar hisoblashda ham muammolar mavjud. Ishlab chiqarish hajmining real o‘zgarish indeksini hisoblash uchun turli ishlab chiqarish hajmlari taqqoslanishi lozim. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida tovarlar qiymatini taqqoslash uchun narxlardan foydalaniladi va ular asosida ishlab chiqarish hajmlarining indekslari hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida islohotlardan avval mavjud bo‘lgan narxlar turli tovarlarning taqqoslama qiymatlarini ifodalay olmagan. Narxlar u yoki bu darajada tannarxga asoslangan bo‘lsada, tannarxning o‘zi resurslarning taqqoslama yetishmovchiligini ifodalamagan. Undan tashqari, islohotlargacha bo‘lgan davrda taqqoslama harajatlarni iste’molchi uchun tovarning foydaligiga qarab sarflash mexanizmi umuman mavjud bo‘lmagan;

mahsulotning assortimenti va sifatidagi o‘zgarishlar. Hozirgacha yangi tovar va xizmatlarning paydo bo‘lishi, u yoki bu tovar va xizmatlar ishlab chiqarilishining to‘xtatilishi va sifatdagi keskin o‘zgarishlarni hisobga olish masalasiga oydinlik kiritilmagan. Bunday muammolar barcha mamlakatlarda mavjud bo‘lsada, bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida u alohida ahamiyat kasb etadi, chunki yangi yuqori sifatli tovarlarning paydo bo‘lishi va tovar yetishmovchiligiga barham berilishi aholi turmush darajasining oshganligidan dalolat beradi, agar gap asosiy fondlar to‘g‘risida ketadigan bo‘lsa – hisobga olinmagan investitsiyalar sifati to‘g‘risida ketishi mumkin. Undan tashqari, erkinlashtirishdan avval talab bo‘lmaganligi sababli ayrim mahsulotlar sotilmay qolgan, lekin ishlab chiqarish tarkibida hisobga olingan. Erkinlashtirishdan so‘ng bunday mahsulotlarni ishlab chiqarish to‘xtatilgan va natijada o‘lchanadigan mahsulot hajmi kamaygan. Erkinlashtirishdan oldin bu tovarlar sotilmay omborxonalarda chang bosib yotganligi uchun iqtisodiy nuqtayi nazardan hech qanday qiymatga ega bo‘lmagan va shuning uchun ularning bozordan chiqib ketishini ishlab chiqarish hajmini kamayishi deb hisoblamaslik lozim.

O‘lchashdagi yuqorida qayd qilingan muammolar miqyosi to‘g‘risida to‘g‘ridan to‘g‘ri faktlar amalda kam keltirilishiga qaramasdan, ular bilan bog‘liq

bo‘lgan xatolar miqyosi juda katta bo‘lishi mumkin. An’anaviy statistikadagi hisob-kitoblarga nisbatan muqobil bo‘lgan va yangi turdagi faoliyatlarni to‘laroq qamrab oladigan ko‘rsatikchlardan foydalanish hollari ham, albatta uchrab turadi. Masalan, aholi iste’molini tekshirishlar xususiy chakana savdoni ham qamrab oladi. Masalan, Polsha mamlakatida real ishlab chiqarish hajmining kamayishi 1989-1992 yillar uchun rasmiy statitika ma’lumotlariga ko‘ra 18% baholangan bo‘lsa, muqobil baholash atigi 5-10% bo‘lganligini ko‘rsatgan.

Yuqoridagilar har holda rasmiy statistika ma’lumotlaridan foydalanish jarayonida ularning qamrab olish va hisoblash manbalari masalasiga ehtiyotkorlik bilan murojaat qilish zarur degan xulosa chiqarishga imkon beradi. Umumiy tarzda mamlakatlarda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar dasturining u yoki bu qirralari to‘g‘risida, ayniqsa aholining turmush darajasi masalasida, global xulosalarni chiqarish masalalarida, ishlab chiqarish hajmini o‘lchashda ma’lum xatolar mavjudligini esdan chiqarmaslik lozim.

Iqtisodiyotda narxlar umumiy darajasining muttasil va doimo oshib borishiga inflyatsiya deyiladi. Iqtisodiyotdagi barcha tovar va xizmatlarga o‘rtacha narxlarning oshishini ayrim tovar va xizmatlar guruhlariga nisbiy narxlarning o‘zgarishi bilan farqlash lozim.

Odatda narxlarning umumiy oshishi nisbiy narxlar tarkibining o‘zgarishi bilan bog‘langan bo‘ladi, ammo inflyatsiya deb nisbiy narxlarning o‘zgarishi emas, balki umumiy narxlarning oshishi hisoblanadi. Ayrim muhim tovarlarga nisbiy narxlarning o‘zgarishi (masalan, elektr energiyasi yoki neft mahsulotlariga) ko‘pincha, inflyatsiyaga qarshi olib borilayotgan iqtisodiy siyosatga qaramasdan, umumiy inflyatsiyaga olib keluvchi jarayonlarni boshlab berishi mumkin.

Boshqariladigan narxlarning (monopolist korxonalar ishlab chiqaradigan tovar va xizmatlarga) oshirilishi dastavval umumiy narxlarning oshishiga olib keladi. Biroq, u o‘z navbatida, nisbiy narxlarning ham o‘zgarishiga olib keladi. Bunda asosiy yoki bazaviy inflyatsiya tezlashuvi shart emas, chunki bazaviy inflyatsiya kam uchraydigan bir yo‘lakay boshqariladigan narxlar, aksiz soliqlari yoki valyuta kursidagi o‘zgarishlarni hisobga olmagan holda hisoblanadi. Bazaviy inflyatsiyani har doim ham aniq hisoblash qiyinroq bo‘lsada, u iqtisodiy siyosatda inflyatsiya sur’atlari ko‘rsatkichlariga nisbatan muhimroq mo‘ljal sifatida tan olingan. Mamlakatlar mutaxassislari bu mamlakatlarda tizimiy islohotlar o‘tkazilish sababli ko‘pgina tovar va xizmatlar narxlariga tuzatishlar kiritilishi munosabati bilan inflyatsiya sur’atlariga nisbatan bazaviy inflyatsiya sur’atlariga ko‘proq e’tibor berishlari lozim.

Bir yo‘lakay ayrim tovarlarga, ayniqsa juda muhim hisoblangan energoresurslarga narxlarning oshirilishi, albatta butun iqtisodiyotda narxlarning (shu jumladan ish xaqining ham) oshishiga olib keladi. Agar mamlakatda qattiq pul-kredit siyosati olib borilmasa, bir yo‘lakay narxlarning oshishi muttasil

inflyatsiya sodir bo‘lishiga olib keladi (bunday inflyatsiya harajatlarning oshishi hisobiga sodir bo‘lgan, deb nomlanadi). Oldin harajatlar oshib, keyin u muttasil inflyatsiyaga olib kelgan misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Yaqqol misol sifatida 1990-yillarda nisbiy narxlardagi farqlarni kamaytirish yo‘nalishida bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarda neft va gazning dunyo narxlariga o‘tkazilishi munosabati bilan sodir bo‘lgan karaxtlikni keltirish mumkin. Bir qancha mamlakatlarda energoresurslarga narxlarning o‘sishi boshqa narxlar va ish xaqining o‘sishi bilan qoplanishiga harakat qilinganligi kuchli inflyatsiya jazavasiga olib keldi. Shu davrda ayrim mamlakatlar qattiq moliyaviy siyosat yuritishlari va nisbiy narxlarni tuzatish davrida aholi tomonidan real daromadlarining pasayishi masalasida tushunish mavjud bo‘lganligi natijasida inflyatsiyani nazoratga olishga muvaffaq bo‘ldilar.

YaIM deflyatoridan tashqari statistikada inflyatsiyani ifodalaydigan boshqa ko‘rsatkichlar ham hisoblanadi. Ular qatorida iste’mol narxlari indeksi (INI yoki CPI) xalqaro andozalarga ko‘ra 300 tadan kam bo‘lmagan tovar va xizmatlarni qamrab olgan iste’mol savati bo‘yicha narxlarning o‘rtacha o‘zgarishini ifodalaydi. Uning YaIM deflyatoridan uchta asosiy farqi mavjud.

Birinchi farqi – indekslarning turli tovar va xizmatlar tarkibini qamrab olganligi. Agar INI faqat aholi harid qiladigan iste’mol tovarlari va xizmatlarinigina qamrab olsa, YaIM deflyatori YaIM tarkibiga kiruvchi barcha tovar va xizmatlarni qamrab oladi. Natijada, firmalar va davlat boshqaruvi idoralarining, masalan, hom-ashyo, materiallar, mashinalar, uskunalar, texnologiya bilan bog‘liq bo‘lgan xarid qilingan tovar va xizmatlariga narxlarning o‘zgarishi YaIM deflyatoriga bevosita ta’sir qilsa, INIga ta’sir qilmaydi.

Ikkinchi farqi – YaIM deflyatori faqat mamlakat ichkarisida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar narxlarining o‘zgarishini ifodalab, import qilingan pirovard mahsulotlariga narx o‘zgarishini qamrab olmaydi. Shuning uchun import mahsulotlariga narxlarning o‘zgarishi YaIM deflyatoriga qisqa muddatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir o‘tkazmaydi. Ammo import mahsulotlari ININing savatiga kiritilgani uchun, ularga narxlarning o‘zgarishi INIga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Uchinchi farqi – indekslarni hisoblash uslubiyatidagi vaznlardan foydalanish. ININi hisoblashda Laspeyres formulasidan foydalaniladi. Unga ko‘ra bazis davridagi iste’mol savatiga kiruvchi tovar va xizmatlarning o‘zgarmas vaznlari qo‘llaniladi. YaIM deflyatorini hisoblashda esa Paashe formulasidan foydalaniladi. Uning savatiga kiruvchi tovar va xizmatlar salmog‘i (vazni) o‘zgarib turishi mumkin. Boshqacha aytganda, INIda vazn sifatida bazis davridagi miqdorlar olinsa, YaIM deflyatorini hisoblashda joriy davr vaznlari (miqdori) olinadi. Masalan, yog‘ingarchilik kam bo‘lgan quruqchilik natijasida makka hosili nobud bo‘lgan bo‘lsa, uni ishlab chiqarish hajmi nolgacha tushib ketadi, narxi esa keskin ko‘tariladi. Bu holda makka (ishlab chiqarilmagan) YaIM deflyatorining hisob-

kitoblariga kiritilmaydi, lekin INI hisob-kitoblarida hamon inobatga olinadi va natijada ININing sun’iy tarzda bo‘rttirib ko‘rsatilishiga olib kelishi mumkin.

Inflyatsiya sur’atlari past vaqtlarda YaIM deflyatori va INI o‘rtasida katta farq bo‘lmaydi. Ammo nisbiy narxlar va importning keskin o‘zgargan paytlarida farq katta bo‘lishi mumkin.

Ayrim tovarlarga narxlar oshib ketgan paytlarda, odatda iste’molchilar bu tovarlarning o‘rnini bosishi mumkin bo‘lgan tovarlarni ko‘proq xarid qilishlari mumkin. Laspeyres indeksida o‘zgarmas bazis davridagi vaznlardan foydalanilganligi sababli iste’mol tarkibidagi bunday o‘zgarishlar hisobga olinmaydi. Bundan tashqari, bu indeks yetarli tarzda tovarlar sifatining yaxshilanishi yoki yangi tovarlarning paydo bo‘lishi, yoki pasaytirilgan narxlarda savdo qiladigan chakana savdo shahobchalari sonining ko‘payishi holatlarni ham hisobga olmaydi. Shuning uchun Laspeyres indeksi ko‘pincha inflyatsiya sur’atlarini oshirib ko‘rsatadi.

Metodlar. INIga o‘xshash ulgurji narxlar indeksi va mahsulot ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi ham Laspeyres formulasi bo‘yicha o‘zgarmas vaznlardan foydalanib hisoblanganligi uchun ko‘pincha inflyatsiya darajasini oshirib ko‘rsatadi. Boshqa tomondan o‘zgaruvchi vaznli Pashe indeksi esa inflyatsiya sur’atlarini pasaytirib ko‘rsatadi.

Iste’mol narxlari indeksi (INI) = $(\Sigma P_t Q_0 : \Sigma P_0 Q_0)*100$

yoki Laspeyres indeksi

YaIM deflyatori = (Joriy yil narxlardagi YaIM : Bazis yil narxlaridagi YaIM)*100 = $(\Sigma P_t Q_t : \Sigma P_0 Q_t)*100$

yoki Paashe indeksi.

Bu yerda:

P_t va P_0 - joriy va bazis davrlardagi bir birlik mahsulot narxi;

Q_t va Q_0 - joriy va bazis davrlarda xarid qilingan (ishlab chiqarilgan) muhsulot hajmi.

Inflyatsiya darajasini bashoratlashda quyidagi omillarni hisobga olish muhimdir:

tannarxning oshishidagi qanday tendensiyalar narxlarni oshishiga olib kelmoqda? Energoresurslarga dunyo narxlarining oshishi bunga yaqqol misol bo‘lishi mumkin. Natijada, harajatlar majburiy tarzda oshib, taklif nuqtayi nazaridan inflyatsiyaga ta’sir o‘tkaziladi. Harajatlar o‘sishini baholashda qancha foiz narxlarni o‘sishiga, va qancha foiz korxonaning o‘ziga pastroq (yuqoriroq) foyda olinishiga ta’sir qilishi mumkinligini baholash talab qilinadi;

firmalar harajatlarning oshishi hisobiga narxlarni qanchaga ko‘tarilishi mamlakat iqtisodiyotini iqtisodiy siklning qaysi bosqichida turganligiga bog‘liq bo‘ladi. Agar tovar va xizmatlarga talab yuqori darajada va malakali xodimlar yetishmayotgan bo‘lsa, firmalar ish xaqini yanada oshirib, buning natijasida

ortiqcha qilingan harajatlarni qoplash uchun narxlarni ko‘tarishlari mumkin (talab tufayli sodir bo‘lgan inflyatsiya). Bunday vaziyat mamlakat ichida va shuningdek xorijiy ishlab chiqaruvchilar bilan raqobat bo‘lmagan holatlarda sodir bo‘ladi. Yuqoriroq harajatlarni narxlarga ko‘chirish darajasi mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat, shu jumladan hukumatning harajatlari oshayotgan ayrim sektorlarga soliq imtiyozlari va subsidiyalar berishga tayyorligi bilan uzviy bog‘langandir;

iqtisodiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat va oxirgi yilga nisbatan qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi? Masalan, real ishlab chiqarish hajmi o‘zgarmay qolib, pul-kredit nazorati yumshatilsa, iste’molchilar nisbatan ko‘payib ketgan pul massasini tovar va xizmatlar sotib olishga harajat qilishlari natijasida narxlar ko‘tarilishi sodir bo‘ladi (talab ta’siridagi inflyatsiya);

bir yoki bir nechta narxlarning o‘zgarishi narxlar umumiy darajasi o‘zgarishini ifodalaydimi yoki u boshqa qarama-qarshi yo‘nalishdagi narxlarning o‘zgarishi bilan qoplanadimi? Nisbiy narxlarning o‘zgarishi chegaralangan resurslarning eng katta naf keltirishi mumkin bo‘lgan sohalarda qaytadan taqsimlash zarurligini ko‘rsatadi. Boshqa tomondan qaraganda, narxlar umumiy darajasining oshishi, odatda iqtisodiyotda ortiqcha talab mavjudligidan dalolat beradi. Amalda bu ikki holat orasidagi tafovut qisqa muddatli kelguvsi davrda narxlar pasayishiga qarshilik qilganligi sababli, yo‘qolib ketadi. Shunday qilib, nisbiy narxlarning o‘zgarishi qisqa vaqtda bo‘lsada, narxlar umumiy darajasini o‘sishida aks etadi;

iste’molchilarning kelgusida narxlar o‘zgarishi bobidagi kutishlari bugungi kundagi narxlarning o‘sishiga qanday ta’sir qiladi? Inflyatsion kutish, masalan foiz stavkalarining tezda ko‘tarilishi va ish xaqini oshirish talablarida o‘z ifodasini topib, iste’molchilarning harajatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Kutishni modellashtirish muammolari iqtisodchilar orasida jiddiy qarama-qarshi fikrlar uyg‘otgan va bir qancha empirik izlanishlar o‘tkazilishiga sabab bo‘lgan bo‘lsada, uning asosida oddiygina g‘oya yotadi, ya’ni kishilarning kelgusi davrga bo‘lgan fikrlari bugungi kundagi hulqlariga ta’sir ko‘rsatadi;

narxlarning harakatiga mamlakatning rasmiy siyosati ta’sir qiladi. Unga narxlarni nazorat qilish, raqobat sohasidagi siyosat va tashqi savdo tizimidagi choralari kiradi. Tashqi savdo tizimi qanchalik erkin bo‘lsa, ortiqcha talabning salmoqli foizi ichki narxlarning o‘sishida emas, balki to‘lov balansida ifoda topadi. Narxlarning o‘zgarishiga almashuv kursining rejimi kuchli ta’sir o‘tkazishi mumkin: almashuv kursi tizimi qanchalik moslanuvchan bo‘lsa, talabning o‘sishi shunchalik valyuta zahiralarining qisqarishida aks topadi.

Inflyatsiyani baholashning eng oddiy usullaridan birida harajatlarning oshishi bashoratlash uchun asos hisoblanadi. Biroq, inflyatsiyani bunday tarzda baholash vaqt o‘tishi bilan narxlarning oshishi umuman iqtisodga bilvosita ta’sir

o‘tkazishi mumkinligi natijasida faqat taxminiy deb qabul qilinishi mumkin. Bundan tashqari, qandaydir vaqt davomida narxlarning o‘zgarishi faqat shu davrdagi harajatlarning oshishinigina emas, balki undan oldingi davrlardan davom etib kelayotgan harajatlar oshishini ifodalashi mumkin. Masalan, import mahsulotlariga narxlarning oshishi, dastavval faqatgina bevosita import qilinayotgan tovarlar narxi va mamlakat ichkarisida o‘sha import qilingan xom-ashyo va materiallardan foydalanib ishlab chiqarilgan tovarlar narxining oshishida aks topadi. Ammo, keyinchalik yuqoriroq narxlarning iqtisodiyotga kengroq tarqalib borishi natijasida, mamlakat ichkarisidagi xom-ashyo va materiallarga narxlarning oshishi ehtimoli mavjud bo‘ladi. Bu oqibatlar, agar ortiqcha harajatlarni qoplash maqsadida ish xaqi ham oshirilsa, juda kuchli bo‘lishi mumkin.

Iste’mol narxlari indeksi (INI) – rezidentlar iste’mol qiladigan vakolatli savatga kiritilgan, mamlakat ichkarisida ishlab chiqarilgan va import qilingan tovar va xizmatlarga narxlarning o‘zgarishini, YaIM deflyatori esa mamlakat ichkarisida ishlab chiqarilgan va ichki iste’mol va eksportga mo‘ljallangan barcha tovar va xizmatlarga narxlarning o‘zgarishini ifodalashi yuqorida ko‘rib chiqilgan edi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki:

1. Narx indekslarini hisoblashda iste’mol savatchasining eskirgan tarkibi inflyatsiyani to‘liq aks ettirmaydi.
2. Narxlarning tez o‘zgarishi rasmiy statistik kuzatuvlar bilan mos kelmaydigan farqlarni yuzaga keltiradi.
3. Norasmiy iqtisodiyot ulushining yuqoriligi inflyatsiya ko‘rsatkichlarining aniqligini pasaytiradi.
4. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida yangi tovar va xizmatlarning tez paydo bo‘lishi statistik hisob-kitoblarni murakkablashtiradi.
5. Xalqaro metodologiyalarni to‘liq joriy etilmaganligi natijasida ma’lumotlar o‘rtasida tafovutlar mavjud.

Prognoz ishlarida INI va YaIM deflyatori orasidagi farq boshqa sabablardan tashqari, import va eksport narxlarining o‘zgarishi orasidagi farq bilan ham bog‘liq ekanligini esdan chiqarmaslik lozim. Agar import narxlari eksport narxlariga nisbatan yuqoriroq darajada oshsa, INI orqali ifodalangan inflyatsiya boshqa teng sharoitlarda YaIM deflyatori orqali ifodalangan inflyatsiya darajasidan kattaroq bo‘ladi. Ammo amalda import narxlarining INIga va eksport narxlarining YaIMga ta’sirini ajratib olish ancha mushkul ish hisoblanadi. Bu holat import narxlarining o‘sishini mamlakat ichkarisida ishlab chiqarilgan mahsulotlar narxlariga o‘tishi qanday sodir bo‘lganligi bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Eksport narxlarining o‘zgarishini INIga ta’siri bevosita sodir bo‘ladi, chunki odatda ichki va tashqi bozordagi mamlakatning eksportga mo‘ljallangan tovarlari bir xil narxda sotiladi.

Inflyatsiyaning bazis darajasini aniqlashda harajatlarning o‘sish sur’atlari o‘zarmay qoladi va narxlarning o‘sish sur’atlari oldingi yildagidek deb faraz qilinadi. So‘ngra, inflyatsiya sur’atlarining pasayishi va oshishiga ta’sir qiluvchi omillar aniqlanadi. Umuman olganda, talabni boshqarishda yumshoq siyosat olib boriladi deb taxmin qilinadi. Bazis bashoratida konkret iqtisodiy siyosat olib borilishi, alternativ, ya’ni moliviy barqarorlikka qaratilgan bashoratda esa talabnii boshqarishda qattiqroq siyosat olib borilishi nazarda tutiladi va unda harajatlarning oshishi narxlarning oshishiga kuchsizroq bilvosita ta’sir o‘tkazadi, deb taxmin qilinadi.

Odatda, harajatlarning oshish tendensiyasiga quyidagilarning o‘zgarishi ta’sir ko‘rsatadi: dunyo bozoridagi narxlar (xorijiy valyutada ifodalangan), nominal almashuv kurslari, ish xaqi va bilvosita soliqlar.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, inflyatsiyani o‘lchashdagi asosiy muammo metodologik va institutsional cheklovlar bilan bog‘liq. Ayniqsa, iste’mol savatchasining tez yangilanmasligi va narxlar dinamikasining to‘liq qamrab olinmasligi inflyatsiya darajasini noto‘g‘ri baholashga olib keladi.

Shuningdek, norasmiy iqtisodiyotning mavjudligi rasmiy statistik tizimning qamrov darajasini pasaytiradi. Bu esa iqtisodiy qarorlar qabul qilishda xatolik xavfini oshiradi.

Shu bilan birga, xalqaro standartlarga asoslangan metodologiyalarni joriy etish va raqamli statistik tizimlardan foydalanish inflyatsiyani aniqroq baholash imkonini beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, narx indekslari va inflyatsiyani o‘lchash o‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda murakkab va ko‘p omilli jarayon hisoblanadi. Statistik ma’lumotlarning cheklanganligi, iste’mol savatchasining moslashuvchan emasligi hamda norasmiy iqtisodiyotning mavjudligi inflyatsiya darajasini aniq baholashga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu sababli, inflyatsiyani aniq va ishonchli hisoblash uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim ahamiyatga ega:

- statistik ma’lumotlar yig‘ish tizimini takomillashtirish;
- iste’mol savatchasini muntazam yangilab borish;
- raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlarini joriy etish;
- xalqaro metodologik standartlarga moslashish.

Umuman olganda, ushbu chora-tadbirlar narx indekslari aniqligini oshiradi hamda iqtisodiy siyosat qarorlarining samaradorligini kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ishmurotova R. “Iqtisodiy talimotlar tarixi”. Ma’ruzalar matni. Toshkent avtomobil va yo‘llar instituti. T:.-2001, 27-36 b.

2. Дж.М.Кейнс. Общая теория занятости, процента и денег. М.: ЗАО «Бизнеском», 2013. — 408 с. — (Библиотека Генерального Директора).

3. Фридман М. Капитализм и свобода.— М.: Новое издательство, 2006.— 240 с.—ISBN 5-98379-054-4 (англ. Capitalism and Freedom, 1962)

4. И.И.Еселеева. Эконометрика: учебное пособие - М.:Финансы и статистика, 2001 г. стр.41-87.

5. Soatov N.M, Ayubjonov A.X. /Statistika nazariyasi/. Darslik.-T.: O’qituvchi, 2020 – 647 bet.

6. Yo. Abdullayev. Statistika nazariyasi. Darslik.- T «O‘qituvchi» 2002.-592 b.

7. Umarova M.A. O‘zbekiston Respublikasidagi inflyatsion jarayonlarni statistik tahlili./ O’zbekiston statistika axborotnomasi ilmiy electron jurnali 2022 yil 3- son.

8. А.Набиходжаев, С.Чепель, Х.Хужакулов. Система показателей индексов цен. Учебное пособие /-Т.: «Iqtisod-Moliya», 2011. 112 с.

9. Statistika bo‘yicha praktikum (2-nashr), O’quv qo’llanma. X. Shodiyev va I.Habibullayevlarning umumiy tahriri ostida. T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015, 336 bet.

10. Umarova M.A. Statistik tahlil. O‘quv qo‘llanma «Innovatsion rivojlanish nashri matbaa uyi»-2021, 120 bet.

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

QISHLOQ XO’JALIGINI RO’YXATGA OLISH ORQALI AGRAR SOHA SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

UTANOV BUNYOD KUVANDIKOVICH
TDIU, “Iqtisodiy statistika” kafedrasi mudiri, i.f.f.d., professor

Agrar soha faoliyani samaradorligini statsitik baholashda shaffof ma’lumotlarni shakllantirish muhim omil bo’lib xizmat qiladi. Bugungi kunda mazkur sohaning asosiy ma’lumotlar manbai sifatida O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlari hisoblanadi. Bundan tashqari O’zbeksiton Respublikasi qishloq xo’jaligi, O’zbeksiton Respublikasi fermerlar Kengashi ham shular jumlasidandir. Lekin bu ma’lumotlarning shaffofligi, aniqligi haqiqatdan talab darajasida ekanligi yoki yo’qligi bo’yicha turlicha qarahlar mavjud. Chunki, ayrim ma’lumotlar yuqorida tashkilotlarda ikki xil ko’rinishda berilib qolishlari ham foydalanuvchida shubha uyg’otmay qo’ymaydi. Bu salbiy holatga kelmaslik uchun bizningcha mamlakatda qishloq xo’jaligini ro’yxatga olish orqali amaliy yechimini berish mumkin bo’ladi. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish agrar sohani zamonaviy, shaffof va bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashtirishning asosi bo’lib xizmat qiladi desak ham bo’ladi. Chunki bu tadbir orqali nafaqat mamlakat, balki har bir fermer, dehqon hamda tomorqa yer egasi uchun ham foydali hisoblanadi.

Xalqaro tashkilot FAO 2020 yilgi ro’yxatga olish bo’yicha hisobotida keltirilishicha bugungi kunda ko’pgina davlatlarda qishloq xo’jaligini ro’yxatga olish tadbirlari o’tkazilishi natijasida mamlakat qishloq xo’jaligi samaradorligi oshirilib, aholini oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim baza bo’lib xizmat qilgan. Buni quyidagi asosiy jihatlardan ko'rib chiqish mumkin(1-rasm).

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —